

TURKIY XALQLAR OG‘ZAKI IJODIDA ILON-AYOL OBRAZI VA UNING ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIGA TRANSFORMATSIYASI

Fayzullayeva Ra‘no G‘ayratovna
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani
40-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy xalqlar og‘zaki ijodi namunalari(mif, afsona, ertak)da uchraydigan ilon-ayol obrazi tahlili, uning badiiy talqinlari, shuningdek semantikasi, matnda bajargan funksiyasi yoritiladi. Bu obrazning zamonaviy o‘zbek adabiyotiga transformatsiyasi va uning yo‘nalishlari Karimberdi To‘ramurod, Hamid Elxon, Usmon Azim ijodi orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ilon-ayol, Shahmeran, skiflar, „Kelin buloq“, mifologiya, qozoq va qirg‘iz ertaklari.

Qadimgi xalq og‘zaki ijodi namunalarida mifologik qarashlar, totemizm, fetishizm, animizm kabi ilk diniy e’tiqod kurtaklariga oid ayrim vositalar, obrazlar, tasavvur mahsullari turli ko‘rinishlarda aks etgan. Xususan, turkiy xalqlar folklorida Shahmeran, Yilana bika, qozoqlarda Jilansha ayel, qirg‘izlarning “Er Töstük” eposidagi ilon qizi kabi yarim ilon, yarim ayol ko‘rinishidagi obrazlar ko‘p uchraydi. Bu obrazlar o‘sha xalqlarning tasavvurlari, dunyoqarashi qadimda qanday bo‘lganini, hayvonlar va insonlarni bog‘lab turuvchi mavhum tushunchalarni, ezgulik va yovuzlikni ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, o‘zbek folklorida “Ilon podshohining qizi”, “Ilon farzandli ayol”, “Ilon kelin” kabi ertaklar bugungacha saqlangan bo‘lib, “Ilon podshohining qizi” ertagida bir podshohing yakka-yu yagona farzandi bo‘lib, u shahzoda ko‘ngliga yoqadigan yorini topolmagani uchun doim xomush yurardi. Kunlardan bir kun shahzoda ov qilib yurib sahroda uzoqdan yiltillab turgan buloqqa ko‘zi tushadi. Chashmaning yoniga borib qarasa undan oppoq bir qiz chiqadi. Qizning ko‘zlari yulduzdek, sochlari beliga tushgan, xuddi sharsharadek to‘lqinlanardi. Qiz yigitga: “Men bu buloqning posboniman, mening ishim sir, mening hududimga har kim ham kiravermaydi” - deydi. Shahzoda qizga oshiq bo‘ladi. Ammo qiz yigitga; “Uch kecha shu yerga kelib, sinovimdan o‘tsang, keyin taqdirimiz birlashadi” deb shart qo‘yadi. Yigit birinchi kecha kelganda qiz: “Tilingni tiy, hech kimga bu uchrashuvni aytma”-, deydi. Ikkinchi kecha: “Hech narsadan qo‘rqma”, uchinchi kecha esa “Uyingga borganingda odamlar mendan qo‘rqadi, lekin sen turgan joyingdan qo‘zg‘alma” – deb tayinlaydi. Oradan uch kecha o‘tib, yigit barcha shartlarni bajargach, qiz to‘yga rozilik beradi. To‘y kuni kutilmaganda katta ilon to‘yxonaga kirib keladi, uni ko‘rib hamma qo‘rqqanidan qochib qoladi, yigit esa qimirlamay to‘xtab qoladi, ilon yigitning yoniga kelib ko‘zlariga tikiladi va suvday yaltirab go‘zal qizga

aylanadi, bu o'sha qiz edi. U yigitga: "Men ilonlar podshosining qiziman, qadr topgan joyda odam, qadrsiz joyda ilonga aylanaman", - dedi. Yigit to'yga rozi bo'ldi, ammo keyinchalik yuragiga g'ulg'ula tushdi, u xotinini yana ilonga aylanishidan qo'rqib, bir kuni kechasi uning yostig'i ostidan bilaguzugini yashirincha oldi. Xotini buni bilib yigitdan, uning ishonchsizligidan xafa bo'ldi va: "Men buloqqa qaytmoqchiman. Agar men bilan hayotingni davom ettirmoqchi bo'lsang uch marta nomimni aytib qo'l cho'z", - deya suvga kirdi, yigit qo'rqoqlik qildi. Shundan keyin bu buloq "Kelinchak buloq" nomini oldi.

Hind-eron va turkiy xalqlarda "Shahmeran", "Shahmaran" nomi bilan tanilgan yana bir mashhur rivoyat bo'lib, unga ko'ra, Jamshid ismli bir yigit o'rtoqlari bilan o'rmondan o'tin yig'ar va shuni sotib kun ko'rardi. Bir kuni u odatdagiday o'tin yig'ishga do'stlari bilan boradi, tasodifan yashirin yerto'laning ust devoir qulab, Jamshid shu chuqurga tushib ketadi, do'stlari qo'rqib qochib ketadi. Jamshid esa yerto'la bo'ylab yurib, bir g'ordagi qasrga borib qoladi. Qasr malikasi Shahmeran – yuzi go'zal ayol, tanasi ilon bo'lgan ilonlar malikasi unga qasrdan boshpana beradi va yigitga mehri tushib, unga tabiblik sirlarini o'rgatadi, ikkalasi turmush qurib birga yashay boshlaydi. Kunlardan bir kuni Jamshid o'z yurtini sog'inib, Shahmerandan uyiga qaytishga ruxsat berishini so'raydi. Shahmeran noiloj rozi bo'ladi va yigitga u haqda hech kimga hech nima aytmasligini tayinlaydi. Jamshid uyiga qaytadi. Bir kuni shu mamlakat podshosi og'ir kasallikka yo'liqib yotib qoladi. Tabiblar podshoni faqatgina Shahmeranning go'shtidan qilingan taomgina tuzatishi mumkinligini aytishadi. Podshoning soqchilari Jamshidning Shahmeranni bilishi haqida eshitib, uni izlab kelishadi. Jamshid ularni Shahmeranning yoniga boshlab borishga majbur bo'ladi. Shahmeran qo'lga olinadi, va uni pishirmoqchi bo'lishganda Jamshid ham o'sha yerda bo'ladi. Shahmeran Jamshidga: "Mening boshimni yegan donishmand bo'ladi, tanamni yegan sog'ayadi, dumimni yegan kishi esa o'ladi, sen boshimni yegin, podshohga tanamdan beringlar, dumimni esa vazir yesin", - deb tayinlaydi. Shahmeranni bo'laklarga bo'lib pishirishadi, Jamshid uning boshidan yashirincha olib yeydi, uning so'zi bilan podshohga tanasini, vazirga dumini berishadi. Podsho sog'ayib ketadi, vazir o'ladi va Jamshid donishmandlik darajasiga yetib, vazir etib tayinlanadi.

Qozoq xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan "J'lansha ayel" rivoyati:

Qadim zamonda bir qishloqda ovchi yigit yashagan ekan. U sahroda, tog'larda kezib ov qilgan, ammo ba'zan ko'ngli g'alati bo'lib, odamlarning gap-so'zlaridan bezib qolgan. Bir kuni uzoq safardan qaytayotib, kimsasiz dashtda chiroyli ayolni uchratdi. Ayolning yuzi oppoq, ko'zlari qora, sochlari beligacha tushgan edi. U yigitga jilmayib:

— Yolg'izsanmi? — dedi.

— Ha, — dedi ovchi. Ayol unga: "Men seni uzoq kutdim, endi yonimda qol," dedi. Yigit ajablanib qaradi: "Qanday qilib sen bu dashtda yolg'izsan?" Ammo ayol javob

bermadi, faqat ko‘zlari ilonning ko‘zidek yaltirab turardi. Yigit unga oshiq bo‘lib qoldi, bir necha kun yonida qoldi. Ammo kun sayin ayolning g‘alati tomonlarini sezdi: u quyosh botganda odamlarday yurardi, tun yarmida esa oyoqlari birdan ilon dumiga aylanar, tanasini tangachalar qoplab, silliq ilon terisiga kirib qolardi. Yigit qo‘rqdi, ammo ayol unga:

— Men Jilansha äyelman, — dedi. — Yarim odam, yarim ilon. Qachonki odamlar meni ko‘rsa, yomonlik deb o‘ylashadi. Lekin men yovuz emasman. Agar sen sadoqatli bo‘lsang, men seni himoya qilaman, baxt keltiraman. Ovchi ikkilanib qoldi. Bir tarafdin ayolni sevib qolgandi, ikkinchi tarafdin qishlog‘idagi odamlar nima der ekan, degan qo‘rquv bosdi. Yigit oxir-oqibat uni tashlab, qishlog‘iga qaytdi. Jilansha äyel esa qattiq xafa bo‘lib, unga la‘nat qildi:

— Menga sadoqat ko‘rsatmading. Endi hayotingda hech qachon tinchlik topmaysan. Shu so‘zlardan keyin ayol ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Rivoyatga ko‘ra, yigit keyinchalik bebaxt bo‘lib, ko‘p o‘tmay vafot etadi.

Yuqoridagi rivoyatlarda ilon-ayol obrazlari sirililik, sadoqat, donishmandlik, qo‘rquv timsoli sanaladi. Ushbu obraz zamonaviy adabiyotga transformatsiya jarayonida semantik jihatdan, funksional jihatdan o‘zgarishlarga uchrab, endilikda u asarlarda ayollik mohiyati, inson qalbidagi ziddiyatlar hamda ijtimoiy ruhiy jarayonlarning ramzi sifatida aks etadi. Xususan, Karimberdi To‘ramurodning “Ilon ayol” hikoyasida pianist erning xotinini “ilonga aylanib qol” deb qarg‘agani uchun xotini ilonga aylanib qoladi. Eri uni savatga solib kemiruvchilar bilan oziqlantiradi va do‘stiga, xotinining akasiga bor gapni aytib beradi. Hikoya oxirida xotinining erini to‘g‘ri yo‘lga qaytishi uchun akasi bilan hiyla ishlatgani ma‘lum bo‘ladi. Ular maqsadiga erishadi: eri ichishni tashlaydi. Hikoyada ilon-ayol obrazi ayyorlik va donolik timsoli bo‘lib keladi va folklordan farqli o‘laroq ijtimoiy-falsafiy mohiyat kasb etadi.

Hamid Elxonning “Ayol va ilon” hikoyasida yosh rassom yigit tabiat suratini chizish uchun olis tog‘li qishloqqa borib, bir muddatga yosh kelin-kuyovning uyida yashab turadi. Hikoyada rassom yigitning tushiga kirgan ilon bilan uy egasining xotini parallel qo‘yib tasvirlanadi va ikkisi Ollohning ikki xil maxluqi bo‘lishiga qaramasdan, ularning xarakteri o‘xshash va mushtarak bo‘ladi. Hikoya so‘nggida rassom o‘zi chizgan tabiat suratiga ayol va uning ortida ilon tikilib turganini ko‘rib hayratga tushgani aks etadi. Bunda yozuvchi ayol va ilon obrazlarini ikki tanadagi bir ruhdek tasvirlaydi, ayolning xatti-harakatlarida ham ilonga xos sovuqqonlik, tezkorlik namoyon bo‘ladi.

Ilon-ayol obrazini zamonaviy adabiyotda nafaqat nasriy asralarga, balki nazmga ham transformatsiyasini kuzatish mumkin. Shu o‘rinda Usmon Azimning “Sirk. Ilon o‘ynatuvchi ayol” she‘riga diqqat qilsak:

Senga ham aytmayman, sen ham eshitma,

Nimaga, qay kuni, kim uchun kuldim?
Kuzgi xayol kabi turma eshikda,
Men, axir, senimas – ilonni suydim.

Sogʻingan oshiqday menga tashlanib,
Vujudin oʻrarkan oppoq belimga,
Bilmam, qay xotirdan koʻzim yoshlanib,
Sovuq basharasin bosdim betimga.

Derazadan tushgan oy tasmasidan
Bekor titranmadi tomirda qonim.
Bezovta boʻlgancha qalbim saʼsidan,
Oʻyladim, keldimi sodiq ilonim.

Bu ilon hech kimga meni alishmas,
Sevar-u ishora qilmas taʼmaga.
Unga borligimning oʻzi muqaddas,
Meni tashlab ketmas bir kun hammaga.

Yolgʻizlik – hammaga qolmoqlik asli,
Meni kuydirgan ham hammaga qolsin!
Bir gʻamxoʻr yolgʻizi bermasin taskin,
Sevgi soʻrab oxir ilonga borsin...

Ilon! Tanholigim hamdami ilon
Kulcha boʻlib yotar oyoqlarimda,
Ey, sen tashqarida uf tortgan inson
Yarim tun termulma chiroqlarimga.

Tillaring biyrondir, tiling – savolkor
Javob topolmasman, dillarim xira.
Mening qalbimda ham, ishon, sevgi bor,
Agar ishonmasang, ilondan soʻra.

Bilmam, qay xotirdan koʻzim yoshlanar,
Sovuq bir nafasning hovri betimda.
Xudoyim, qanaqa kunlar boshlanar...
Chirmashar ilondek qoʻllar belimga.

Ushbu she'rda ham ilon va ayol obrazlari yonma-yon, bir-biriga parallel va ayrim misralarda o'zaro zid qo'yilgan holda tasvirlanadi. Usmon Azim ilonning qadimgi turkiy folklordagi ilon-ayol obrazining donolik, sodiqlik, mehr-muhabbat kabi timsollarni anglatganiga ishora tarzida har bir misrada alohida ramziga urg'u beradi. Ayrim o'rinlarda esa uni zamonaviy adabiyotdagi talqini bo'yicha, ya'ni sovuqqonlik, ayyorlik, hiylakorlik timsoli sifatida gavdalantiradi. Bundan ko'rinadiki, ilon-ayol obrazining folklordagi va zamonaviy o'zbek adabiyotidagi semantik xususiyatlari bir-biridan ancha farq qiladi va bu jarayon transformatsiya davrida zamonaviy adabiyotning ijtimoiy-falsafiy yo'nalishga o'tganligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, turkiy xalqlar og'zaki ijodida ilon-ayol obrazi qadimiy mifologiyaning muhim qatlami hisoblanadi va o'zbek adabiyotida bu obraz yangi ma'nolar kasb etib, inson, jamiyat va tabiat munosabatlarining ramzi sifatida maydonga keladi. Shu sababdan ilon-ayol obrazi folklor va zamonaviy o'zbek adabiyotini tutashtiruvchi bir ko'prik vazifasini bajaradi. Yangi o'zbek adabiyotida ushbu obraz mifologik obrazdan ijtimoiy-falsafiy obraz darajasigacha ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karomatov, H. Mif va folklor. – Toshkent: Fan, 1994.
2. Ergun, M. Türk halk hikâyelerinde şahmeran motifi. – Ankara, 1999.
3. Abdurahmonov, M. O'zbek mifologiyasi va ramzlar. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015.
4. Elxon, H. Ayol va ilon (hikoya). – Toshkent: Sharq yulduzi jurnali, 2005.
5. To'ramurod, K. Ilon-ayol (hikoya). – Toshkent: Yoshlik jurnali, 2010.
6. Usmon Azim. Sirk. Ilon o'ynatuvchi ayol. — Toshkent, 2000-yillar.